



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOJXONA YIG'IMLARI VA BOJMONLAR FAOLIYATI**

**Muborak Madrimovna Matyakubova**

Urganch davlat universiteti, dotsent

### **Annotatsiya**

Xonlik g'aznasi daromadlarining asosini tashkil qilgan bojxona tushumlari bojmonlar tomonidan undirilgan. Bozor faoliyatida bojxona boshlig'i alohida nufuzga ega edi. Bojmonlar xonning ishonchli vakili, yaqin do'sti sifatida qaralgan. Savdogarlarning qaysi yo'ldan yurishlariga qarab bojxonalar qurilgan. Boj har bir kelayotgan va ketayotgan karvondan olingan. Karvondagi har bir savdogar saroy zakotchisi oldiga kirib, boj to'lagan va yana har bir tuya haqini to'lab, yorliq yozdirib olgan. Bu yorliqlar mamlakat chekka qishloqlaridan ham chiqib ketguncha xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** Xiva xonligi, iqtisodiy munosabat, Bozor faoliyati, bojxona, zakotchi, bojmon.

## **ТАМОЖЕННЫЕ ПОШЛИНЫ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННИКОВ НА РЫНКАХ ХИВ-ХАНАТА**

**Муборак Мадримовна Матякубова**

Ургенчский государственный университет, доцент

### **Аннотация**

Глава таможи оказывал особое влияние на деятельность рынка. Таможенные сборы, составлявшие основу доходов казны ханства, собирались таможенниками. Таможенники считались доверенными представителями и близкими друзьями хана. Таможенные участки строились в зависимости от маршрута движения купцов. Таможенные пошлины взимались с каждого прибывающего и отбывающего каравана. Каждый купец в караване ходил к дворцовому сборщику закята, платил пошлину, а также платил сбор за каждого верблюда и заказывал на нем этикетку. Эти этикетки служили даже отдаленным деревням страны.

**Ключевые слова:** Хивское ханство, экономические отношения, рыночная деятельность, таможня, сборщик закята, таможенник.

## **CUSTOMS DUTIES AND ACTIVITIES OF CUSTOM COLLECTORS IN THE MARKETS OF THE KHIV KHANATE**

**Muborak Madrimovna Matyakubova**

Urgench State University, Associate Professor

### **Abstract**

The head of the customs office had a special influence in the activities of the market. Customs revenues, which formed the basis of the income of the khanate treasury, were collected by customs officers. Customs officers were considered trusted representatives and close friends of the khan. Customs offices were built depending on the route taken by the merchants. Customs duties were collected from each arriving and departing caravan. Each merchant in the caravan went to the palace zakat collector, paid the duty, and also paid the fee for each camel and had a label written on it. These labels served even the remote villages of the country.

**Keywords:** Khiva Khanate, economic relations, Market activities, customs, zakat collector, customs officer.

Xususan, Xiva xonligida bir nechta bojxonalar mavjud bo'lgan [1]. Xiva savdo yo'llari kesishgan joyda joylashgani uchun undan Hindiston, Xitoy, Eron, umuman, Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlariga boradigan yo'llar boshlangan. Xiva Rossiyaga boradigan barcha qisqa savdo yo'llari kesishgan nuqtada joylashgani uchun Osiyo tovarlari uchun ombor vazifasini ham o'tagan [2]. A. Kun ham shunga o'xshash ma'lumot keltiradi: "Urganch shahri nafaqat xonlikning, balki unga qo'shni davlatlarning ulgurji savdo ombori bo'lib, mahsulotlar xonlik va undan keyin Rossiyaga yuborilgan" [3]. Savdogarlardan boj, tamg'a kabi to'lovlar olingan va boj undiruvchi "bojbon" deb atalgan. Shaharlardagi bojxonalar tepasida oliy hukmdorga yaqin amaldor turgan. Buxoroda bu ish boshida qushbegi, Qo'qon xonligida mingboshi, Xiva xonligida esa bu vazifani birinchi mahram bajargan.

Ichan-Qal'aga kiradigan Ota darvozaning o'ng tarafida ikki xona mavjud bo'lib, ulardan birida

chetdan kelayotgan savdogarlardan boj undirilgan — bojxona, ikkinchisida esa xorij pullari Xorazm puliga almashtirilgan — sarrofxona boʻlgan. Chunki karvonsaroyda karvonlar koʻzdan kechirilib, mollar tekshirilib, ulardan boj olingan [1]. A. Vamberi “bu mamlakat odatiga koʻra, bojxona vazifasini oʻtagan karvonsaroy oldida” toʻxtaganini yozadi [4]. Xiva xoni xazinasiga tushadigan boj soligʻi foydasi yiliga 100 dukatgacha yetgan [2].

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Xiva xonligida savdogarlar chegaradan oʻtganda yoki bozorga mol keltirganda molining qiymatiga qarab bojbonlarga boj toʻlagan. Qoʻy uchun 1 tanga, sigir uchun 8 tanga, tuya uchun esa 10–18 tanga, otning zotiga qarab esa 6 tangadan 30 tangagacha boj toʻlash majburiy boʻlgan. Bundan tashqari, Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida toʻqayzor oʻrmonlar boʻlib, har yili bir marta imoratga ishlatish, hunarmandchilikda foydalanish uchun daraxt kesishga ruxsat etilgan. Xonlik boyligi hisoblangan toʻqayzor oʻrmondan har bir arava daraxt kesganlik uchun bir tanga boj toʻlangan [5].

Boj undirishning oʻziga xos usullaridan biri uni mol bilan toʻlash edi. N. Muravyevning koʻrsatishicha, “Xivada xonlik shaharlariga keltiriladigan mollarning oʻttizdan bir qismi” boj tariqasida toʻlangan [6]. 1840-yilda eʼlon qilingan G. Gilmersen maʼlumotlarida karvonlardan boj soligʻi pul bilan olingani va aniq soliq miqdori belgilanmaganligi, soliq avval Urganchda, keyinchalik Xivada olinganligi xabar qilinadi [7].

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xorijiy savdogarlar xonlik shaharlari karvonsaroylarida keltirgan mollari bilan ulgurji savdoni amalga oshirgan. Bu yerda musulmonlardan 2,5 %, ruslar va oʻzga din vakillaridan esa 5 % zakot undirilgan [6]. Xonlikda nafaqat ruslar, balki ingliz savdogarlari ham oʻz tovarlari savdosini amalga oshirish uchun harakat qilganlar. R. Alimova ular xususida quyidagilarni yozadi: “Inglizlar Xivada oʻzlarining tovarlari uchun bozor ham qidirgan, lekin izlanishlar natijasida ular Yevropa tovarlariga xivaliklarning ehtiyoji kamligini sezishgan. Shuning uchun bu yerda foydali savdo qilishga koʻzi yetmay, foydadan koʻra sarf-xarajat miqdori oshib ketadi, deb hisoblashgan. Boj masalasida, musulmon boʻlmaganlarning tovarlaridan 5 %, musulmonlardan esa 2,5 % boj soligʻi olingan” [7].

Eronlik savdogarlar keltirgan mollardan ham 5 %, musulmonlardan esa 2,5 % zakot yoki boj olingan. Eroniyar shia mazhabida boʻlgani uchun boshqa din vakillari qatori boj toʻlagan [8]. Xonlikda bojbonlarning mavqei nihoyatda baland boʻlib, ularga alohida hurmat koʻrsatilgan. Shunday bojbonlar sirasiga Xoʻjash mahram faoliyatini keltirish mumkin. Muhammad Rahimxon I Kengashiga aʼzo boʻlmasada, uning yigʻilishlarida Xoʻjash mahram ham qatnashgan. Uning otasi Oллоhnazarni Muhammad Amin mehtar Eronidan qul sifatida sotib olib Xivaga keltirgan va u Xivaga kelgach, shialikdan sunniylik mazhabiga oʻtgan edi [9]. Eroniy qul Xoʻjash mahram shialikdan sunniylikka oʻtgan boʻlsa-da, doimo oʻz mazhabiga sodiq qolgan [10].

Tarixiy manbalarda bu haqda maʼlumotlar keltirilgan. U yaxshi chavandozligi uchun otchopar lavozimiga tayinlanadi. Musulmonlikni qabul qilgan, uylangan va oilali boʻlgan, yaxshi xizmatlari uchun qullikdan ozod etilgan. Xon unga mirza ham tayinlagan [11]. Uning oʻgʻli Xoʻjash ham otasi kabi yaxshi chavandoz, mohir qilichboz, ilm-maʼrifatli yigit boʻlib yetishdi. 1806-yilda Buxoro bilan boʻlgan jangda Muhammad Rahim toʻrani qutqarganlar qatorida boʻlganligi bois uning mavqei yanada oshdi [9].

1819-yilda Xivaga kelgan kapitan N. Muravyev Xiva xonining Oliy Kengashi toʻgʻrisida shunday yozadi: “Xon atrofidagi bosh amaldorlardan uchinchi Xoʻjash mahram. U aʼzo boʻlmasa ham Kengashda qatnashgan. Haqiqiy aʼzolaridan hech kim uni Kengashdan chiqarishga qurbi yetmagan”. 1819-yilning 21-noyabrda xon bilan uchrashishga muvaffaq boʻlgan N. Muravyev Xiva xoni bilan boʻlib oʻtgan rasmiy qabul marosimi vaqtida xonning hukmdorga maslakdosh sifatida amaldorlaridan Xudash mahram va Yusuf mehtar ishtirok etganini qayd etadi [12].

Xudash mahram qirq yoshlar atrofida, xonning sevimli kishisi, qora soqoli oʻsgan, goʻzal chehrasi aqlli va qarashlari maʼnoli kishi sifatida tasvirlanadi. U oʻz safdoshlari ichida ozoda va boy kiyinadi. U soʻzga chechan, soʻzlari muloyim va yoqimli, uning bitta mirzasi va devonlari bor [13]. Munisning “Firdavs ul-iqbol” asarida ham u haqda chiroyli taʼrif keltiriladi: “Xoʻjash mahram xonning yaqin sirdosh doʻsti, saltanat ayvonining tayanch ustuni va davlat bosh maxfiy ishlarining ichki mahrami” [14].

Mahram urushda koʻrsatgan jasratlari sabab xonga yaqin boʻlgan. Boshqa manbalarda ham ushbu eroniy mansabdor haqida iliq soʻzlar koʻp aytiladi. Xoʻjash mahram haqiqatan ham jasur kishi boʻlib, urushda koʻp xizmat qilgan, bu xizmatlari evaziga ozodlik mukofotini olgan edi [11].

Xoʻjash mahram davrida chet mamlakatlardan kelgan va chetga chiqariladigan karvonlardan boj

olish qonuniy tusga kirdi. To‘langan boj uchun yozilgan yorliqqa muhr qo‘yilgan. Natijada xon xazinasi ancha ko‘paygan [9]. U bojxona boshlig‘i bo‘lgach, juda boyib ketgan, o‘zidan yuqori mansabdorlarga qulday xizmat qilib, o‘zidan past tabaqaga mensimay munosabat qilgan. Shu sababli uni tevarak-atrofidagi kishilar yoqtirishmagan. Hatto o‘zining shaxsiy mulkidan Xo‘jash mahram madrasasini ham qurdiradi. 1839–1840-yillarda Olloqulixon davrida Ichan-Qal‘a markazida qurib bitkazilgan Xo‘jash mahram madrasasida maxsus bojxona faoliyati uchun 30 dan ziyod tolibi ilmlar tayyorlanganligi bojxona tizimining yaxshi tashkil etilganligidan guvohlik beradi [15].

1819-yilda Xivaga kelgan kapitan N. Muravyev Xo‘jash mahramni qirq yoshlar atrofidagi kishi sifatida ta‘riflaydi. 1841-yilda Xivaga kelgan kapitan Nikiforov esa Xo‘jash mahram haqida “oltmish yoshlarda, Toshhovuz viloyatining hokimi lavozimida ham ishlagan, endi davlat ishlari bilan shug‘ullanmaydi, lekin saroyda obro‘si katta” [16], deb yozadi. Xo‘jash mahram 1779-yilda tug‘ilgan va 1854-yilda 75 yoshida vafot etgan [6]. Palvonniyoz Muhammad — Komil Xorazmiy Xo‘jash mahramning qizidan bo‘lgan nevarasi hisoblanadi.

#### XULOSA

Rossiya bosqinidan so‘ng bojbon tayinlash borasida ham o‘zgarishlar bo‘ldi. U. Bekmuhammad bu borada qiziqarli ma‘lumotni keltiradi: “Mahalliy kishilardan bojxona boshlig‘ini tayinlashga Xorazm savdogarlariga yon bosish, deya ishonchsizlik bilan qaralgan. Ammo shu yerdagi yoki to‘ppa-to‘g‘ri Peterburgdan bojxona boshlig‘i kursisiga bir rusni olib kelishga mustamlakachilar botinolmadilar. Biroq buning ham yo‘li topildi. Asli Sho‘raxonlik, hozirgi To‘rtko‘llik bo‘lgan Saidmurodni bojxona boshlig‘i qilib tayinlashdi. Zero, u Galina Ivanovna degan rus ayoliga uylangandi. Shu taxlit xalq orasida “o‘rislarning bojmon kuyovi” deb tanilgan Saidmurod bojmon, xotini rus bo‘lgani bois, 1895-yildan yaxshigina mansabni egallagan. U Rossiya imperiyasi bojxona qonunlariga ko‘ra, keskin belgilangan narxdagi bojni olar, bu esa ko‘pchilik nazarida qattiqqo‘llik bo‘lib tuyulardi. Ammo u o‘zbekchilik qilib, faqirroq kishilarga yon bosar, beva-bechoralarga yordam qo‘lini cho‘zardi. Saidmurod bojmon ko‘p yillar shu maskanda ishlab, o‘lkaning eng nufuzli kishilaridan biriga aylandi. U xotini Galina Ivanovna bilan Mariya, Abdulla, Muhammad, Nazarboy, Madrahim ismli farzandlarini ham elda obro‘-e‘tiborli qilib tarbiyaladi. Ayni paytda o‘ris xotining maslahatiga quloq tutib, topgan pullarini xorazmcha aytganda “arja” — sandiqda emas, ko‘paytirish uchun sarfladi. Petro-Aleksandrovsk, Shobboz va Hazoraspd paxta tozalash zavodlariga asos soldi. Saidmurod bojmondan sanoatga asos solgan zavodchi boy va “o‘rislarning bojmon kuyovi” degan nom qoldi. U 1920-yillarning o‘rtalarida Hazoraspd vafot etdi.”

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Agzamova G. O‘zbekiston shaharlari XVI–XIX asrning o‘rtalarida. – Toshkent, 2017. – B. 136.
2. Alimova R. R. O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari. – Toshkent, 2017. – B. 90–91.
3. Abduxalilova A. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi bozorlarida soliq va yig‘imlar // XXI asr: fan va ta‘lim. Ilmiy elektron jurnal. – 2024. – № 2.
4. Кун А. Культурный оазис Хивинского ханства. Город Ургенч // Туркестанские ведомости. – 1874. – № 6. – С. 54.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М.: Изд. Мамонтова, 1867. – С. 104.
6. Bekmuhammad U. Xiva xonligi tarixidan lavhalar. – Urganch, 2008. – B. 32.
7. Муравьев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева. – М., 1822. – Ч. I–II. – С. 82.
8. Гильмерсен Г. Хива в нынешнем своем состоянии // Отечественные записки. – 1840. – С. 105.
9. Davlatyor Rahim. Ollohqulixon. – Urganch: Quvonchbek-Mashhura MCHJ, 2018. – B. 210.
10. Mirpanjiy I. Asirlikdagi xotiralar. – Urganch: Xorazm, 1997. – B. 43–45.
11. Saparboyev B. Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligi tarixi (1806–1825 yy.). – Buxoro: Durdona, 2023. – B. 38.
12. Muhammadjonov A. R., Ne‘matov T. Buxoro va Xevaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba‘zi manbalar. – Toshkent: Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1967. – B. 143.
13. Муравьев Н. Н. Путешествие в Хиву // Русский архив. – М., 1887. – № 9–10. – С. 61–65.
14. Munis, Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent, 2019. – B. 359–360.
15. Qodirov J., Gaipnazarov R. O‘zbekiston Respublikasida bojxona ishi tarixi // O‘zbekiston bojxona axborotnomasi. – 2019. – № 1. – B. 14.
16. Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 году.